

---

## VILOYAT HOKIMI O'ZBEKISTON TUMANIGA TASHRIFI DAVOMIDA ISLOM MAHALLASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLARNI KO'ZDAN KECHIRDI

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov O'zbekiston tumaniga tashrifi davomida mahallalarni ishsizlikdan holi hududga aylantirish, hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini o'rgandi.

Ayni yo'naliшда Islom mahallasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'zdan kechirildi.

Mahalladagi mavjud 550 dan ziyod xonadonning aksariyati kasanachilik asosida quruq va xo'l mevalarni qayta ishslash hamda saralash bilan shug'ullanadi.

Bunda mahallada istiqomat qilib, ayni yo'naliшда faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlarning hissasi ulkan. Jumladan, ham mahalla raisi, ham eksportyor tadbirkor Ilhomjon Mamatqulov rahbarligidagi "Yahyohon Trade 2020" oilaviy korxonasiga 450 ta xonodon biriktirilgan. Ya'ni nafaqat Islom mahallasi balki qo'shni mahallalarda ham yashovchi 450 nafar fuqarolar kooperatsiya asosida mazkur korxona yordamida bandligi ta'minlanib, kunlik munosib daromadga ega bo'lmoqdalar.

Korxonaning xonadonlardagi aholi vakillari yordamida quritilib, qayta tayyorlanayotgan yillik 5 ming tonna, qiymati esa 10 mlrd. so'mlik meva va qishloq xo'jaligi mahsulotlari Rossiya, Xitoy va Turkiya kabi davlatlarga eksportga ham yo'naltirilmoqda.

Xayrullo Bozorov bu yerda aholi bilan muloqot qildi, har bir oila harakat qilsa yaxshi daromadga ega bo'lishini ta'kidladi.

### **[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2024-09-20 20:54:32